

ONA TILI DARSLARIDA IBORALARNING O'QITILISHI

Maxmudova Rushana Sarvar qizi,

ToshDO TAUNing 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ona tili darslarida iboralarning o'qitilishi, ularning o'quvchilar nutqiy faolligi va estetik didini rivojlantirishdagi o'rni yoritilgan. Iboralarning metodik jihatlari tahlil qilinib, uni o'qitishda qo'llaniladigan samarali usullar ko'rsatib o'tilgan. Maqola tilshunos olimlarning fikrlari va ilmiy manbalar asosida yozilgan bo'lib, amaliy (metodik) tavsiyalar bilan boyitilgan.

Kalit so'zlar: ona tili, iboralar, metodlar, "5 barmoq", "Top va izohla" "Qirg'iz telefon".

Ona tili darslari nafaqat grammatik bilimlarni egallash, balki o'quvchilarda og'zaki va yozma nutq malakasini shakllantirish, estetik tafakkurini rivojlantirishda muhim vazifani bajaradi. Bu jarayonda iboralarning, ya'ni frazeologik birliklarning o'rni kattadir. Iboralar xalq tafakkuri, hayotiy tajribasi va madaniyatining yorqin ifodasi sifatida til boyligini ifoda etadi. Shu bois, iboralarni o'qitish masalasi ona tili metodikasining dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Iboralarni o'qitish bo'yicha bir qator olimlar izlanishlar olib borgan. Ulardan metodist olim Asqar G'ulomov "O'quvchilar lug'at boyligining muhim qismini ibora va tasviriy ifodalar tashkil etadi. Ibora, odatda, bir so'zga teng keladigan so'zlar qo'shilmasi bo'lib, u nutqimizni boyitadigan, go'zallashtiradigan va ta'sirchanligini oshiradigan muhim vositalardan biri sanaladi. O'quvchilar nutqini iboralar bilan boyitish maqsadida berilgan iboralarni so'zlar bilan almashtirish yoki, aksincha, so'zlar o'rnida iboralarni qo'llash, iboralarning ma'nosini sharhlash, berilgan iboralarga yaqin ma'noli iboralar tanlash, berilgan iboralarga qarama-qarshi ma'noli iboralar tanlash kabi topshiriqlardan foydalanish mumkin"

[1] – degan fikrlarni bildiradi. Metodist olim ushbu fikrlari orqali iboralarni o‘qitishda faqat ularning ma’nosini tushuntirish emas, balki ularni amalda qo‘llash, turli xil topshiriqlar orqali o‘rgatishni taklif qilgan.

Shuningdek, tilshunos olima Dilorom Yuldasheva “Iboralar mavzusi ta’limi o‘quvchilar uchun hamisha qiziqarli va e’tiborli mavzu bo‘lib qolaveradi. Iboralar tilimizda so‘zlar bilan teng baravar ishlatilaveradiki, bizlar ba’zan iborani qo‘shma so‘zdan yoki so‘z birikmasidan farqlamaymiz” [2] – deydi. Olima ta’kidlaganidek, biz iboralarni odatiy so‘zlar kabi ko‘p ishlatamiz va ba’zida ularni oddiy so‘z birikmasidan ajrata olmaymiz. Shu sababli iboralarni to‘g‘ri tushunish va o‘rganish muhimdir.

Quyida esa iboralarni o‘qitishda qo‘llaniladigan samarali usullar ko‘rsatib o‘tiladi:

Rasmlar asosida iborani topish

- Ekranga yoki doskaga iboralar mazmuniga mos rasmlar chiqariladi.
- O‘quvchilar rasm asosida qanday ibora ifodalanganini topishadi.



“5

BARMOQ”

metodi

Har bir darsda butun sinf o‘quvchilarini baholash biroz qiyinchilik tug‘dirishi mumkin, ammo bu metod yordamida ularni oz vaqt ichida baholay olasiz.

Afzalliklari: Bu metoddan xohlagan fandan foydalanish mumkin.

Har bir o‘quvchiga kaftning surati tushirilgan rasm va 5 tadan so‘z



tarqatiladi.

1. Kaft shabloni tagiga o‘quvchilar o‘z ismini yozadilar.
2. O‘quvchilar so‘zlarga teng bo‘lgan iboralarni topib yozadi. Joy yetmasa qog‘ozning orqa tarafiga yoziladi.
3. Javoblar yozib bo‘lingach, tekshirish maqsadida shablonlar partadoshlar bilan almashtiriladi.
- 4.O‘qituvchi ketma-ket javoblarni e’lon qiladi.

Talab: Xato yozilgan javobli barmoq bukhanishi kerak.

Shablonlar egasiga qaytariladi va har bir o‘quvchi “kaftlarni” ko‘rib, necha baho olganlarini bilib oladilar. Bu qiziq va vaqtini tejaydi.

“Top va izohla” o‘yini

- Har bir guruhga iboralar yozilgan kartochkalar beriladi.
- O‘quvchilar bu iboralarning ma’nosini taxmin qilib, hayotiy misollar bilan izohlashadi.
- To‘g‘ri javoblar uchun ball beriladi.

“Qirg‘iz telefoni” metodi

Ushbu mashqni mavzu mohiyatini ochish va charchoqni unutish uchun qo‘llash mumkin.

Ishtirokchilar davraga turishadi. Mashq “Qirg‘iz telefoni” deb nomlanishi, tog‘li, dashtli o‘lkalarda aloqa yaxshi bo‘lmagani sababli, xabarni so‘z bilan emas, belgilar, ramzlar yoki harakatlar orqali yetkazish (uzatish) osonroq ekanligi tushuntiriladi.

Shuning uchun ishtirokchilar davra bo‘ylab ma’lum xabarni ya’ni iboralarni yuboradi. Boshlovchining harakatlarini zanjir bo‘yicha birinchi, ikkinchi va h.z. barcha ishtirokchilar to‘xtashga buyruq berilmaguncha takrorlaydi. Harakatni o‘ng tomondagi ishtirokchi bajarmaguncha, keyingisi boshlay olmaydi. Masalan, boshlovchi bir iborani aytdi. Undan keyin chap tomondagi ishtirokchi, keyin uning yonidagisiga aytdi. Harakatni bajarishni boshlagan ishtirokchilar davom ettiraveradilar. Navbat yana boshlovchiga kelganida, u boshqa iborani qo‘sadi,

ya'ni keyingi ishtirokchi ikki iborani harakatlar yordamida boshqa ishtirokchilarga ko'rsatadi. Agar biror ishtirokchi xato qilsa, o'yin to'xtatilib, hammasi boshidan boshlanadi. Harakat navbati davrani aylanib, boshlovchiga etib kelganda, o'yin tugaydi. Bu o'yinda o'quvchilar hamma narsani bir vaqtida bajarishi, qolganlarni esa kuzatishi qiziqarli bo'ladi. Odatda, o'yinni 2-3 marta boshidan boshlashga to'g'ri keladi. Shunday qilib, barcha ishtirokchilar diqqatlarini jamlab, harakatni boshidan boshlashga majbur bo'ladilar.

Xulosa qilib aytganda, iboralarni o'rgatish jarayoni nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy mashqlar bilan boyitilishi lozim. Bu esa o'quvchilarning tilni ongli ravishda egallashi, milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarashi va badiiy tafakkurining rivojlanishiga xizmat qiladi. Iboralarning ko'p ma'noliligi, obrazliligi va xalqona ifoda kuchi ularni didaktik material sifatida o'ziga xos ahamiyatga egaligini ko'rsatadi.

Keltirilgan interaktiv metodlar iboralarni chuqurroq o'zlashtirishga, ularni amalda qo'llay olishga yordam beradi. Bunday metodlar o'quvchilarning faolligini oshirib, dars jarayonini jonlantiradi, shuningdek, og'zaki va yozma nutqni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012, 380 bet.
2. D.N. Yuldasheva. “ O'zbek tilini o'qitish metodikasi”. – Buxoro: “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona nashriyoti, 2021. – 424 b.
3. B.To'xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodova.O'zbek tili o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, T.: 2006. 192 b.
4. Z. Xolmonova, T. Yusupova. O'zbek tilini o'qitish metodikasi. T.: “ Navoiy universiteti” nashriyot-matbaa uyi. 2019-yil.194 bet.